

Ona yurti - oltin beshigi

# TONG yulduzi

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

№ 5-6  
(66442-43)

2004 yil 9 fevral  
dushanba

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan


O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:


O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOY HARAKATI.

## SAN'AT SARHADLARIGA YO'L

Assalomu alaykum, hurmatli tahririyat xodimlari. Men 5 yanvar kuni chop etilgan o'z gazetamizni o'qiyotib, unda o'zimning ilk she'rimni ko'rdim va juda quvonib ketdim. Buning uchun sizlardan minnatdorman. Men she'r yozishdan tashqari, rasm ham chizib turaman. Ukam



Orifjon bilan taniqli rassom Baxtiyor Ro'zmetovning shogirdimiz. Hozirda Orifjon Urganchdagi




«Tasviriy san'at» litseyining 5-sinf o'quvchisi. 2003 yil avgust oyida O'zbekiston Badiiy Akademiyasida o'tkazilgan «Xazorasp rassomlari» ko'rgazmasida biz ham ishtirok etdik va olqish oldik. Sizlarga «Natyurmort» va «Baqtriya zamoni qal'asi» nomli rasmlarimni yuboryapman.

Mohima BOBOYEVA,

Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidagi 45-maktab o'quvchisi.

**Tahririyatdan:** Mohima tengdoshingizni chizgan rasmlarini ham ko'rib, ularga baho bering. Adabiyot va san'atga oshno bo'lganlar a'lo o'qiydilar. A'lochilar olamni teran anglaydi. Kelajagimiz shunday bilimdonlarnikidir.



## ANASTASIYAGA

### DEB YOZING

Mening ismim Anastasiya, 4-sinfda o'qiyman. Adabiyot, matematika, ingliz tili, musiqa fanlariga juda qiziqaman. Ayniqsa, milliy cholg'u asboblari ijro etilayotgan kuylarni jon-dilim bilan tinglayman. Bizning mahallada asli andijonlik Hoshim aka ismli kishi yashaydi. Bag'ri keng bu insonni hamma qo'shnilarimiz hurmat qilishadi. Ularning farzandlari odobli, shirinso'z. Ayniqsa, qizlari qo'li gul chevar. Qiziquvchanligim bois Hoshim akaning uylariga tez-tez borib, qizlaridan bichish-tikish sirlarini o'rganayapman. Ha, sizga bir sirni aytсам, O'zbekiston bolalari uchun chop etilayotgan «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» kabi ajoyib gazeta va jurnallarni ham ayni shu chevar qizlar bilan birga o'qib chiqdim. Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasi menda katta taassurot qoldirdi. Nega deysizmi? Chunki unda respublikangizning turli burchaklaridagi menga tengdosh yoshlarning hayoti, o'qish va olib borayotgan ibratli ishlarini yoritishga keng o'rin berilib, turli boshqotirmalar, ajoyib hikoya va she'rlar chop etilgan. Bugun ushbu gazeta orqali siz bilan suhbatlashayotganimdan qanchalik quvonayotganimni bilsangiz edi. Shu yil yozda ota-onam bilan Buyuk Britaniyada bo'lib, bir olam taassurotlar bilan qaytdim. Endi esa quyoshli O'zbekistonga bormoqchimiz. Maqsadim, siz bilan do'stlashish. Menga maktublar yozing, albatta kutaman.

Manzilim:

Belorusiya respublikasi,  
Magilyov viloyati,  
Osipovichskiy tumanidagi  
1- maktabning 4-sinf o'quvchisi  
Anastasiya SUDNIKga deb yozing.

Maktublar qutisi



## YONIMDA BO'LING, OYI

Oyijon, oyijon,  
Jon, oyi!  
Yonimda bo'ling har on, oyi!  
Yonimda bo'lsangiz,  
O'ynayman.  
Siz kulib tursangiz,  
Quvnayman!  
Sho'xligim ortadi,  
Chopaman.  
O'zimga ovunchoq  
Topaman.

Hayiqmay qolaman hattoki  
Urishsa ham bog'cha opamdan!  
Aytaman, «o'yinchoq bering», deb.  
Biz bilan band bo'lib yuring, deb.  
Har kuni har turli kiyasiz.  
Sumkangiz to'ldirib qiya siz...  
Biz bilan juda kam gaplashib,  
Qo'shiqlar o'rgatmay,  
Ham shoshib,  
Bemalol bolishga yonboshlab,  
Uyquni berasiz siz boshlab...

Yo uch-to'rt dugona topilar,  
Savdogar yo ona topilar,  
Bir gapga tushsangiz qip-qizil  
Bu lablar, oh qachon yopilar?  
Oyijon, oyijon,  
Jo-o-n oyi!  
Yonimda bo'ling har on, oyi!  
Yonimda bo'lsangiz  
hurramman,  
Tillari ham  
burro-burroman!  
UMIDA.

## UZUN SOCHLARIM ETAKLARIMGA TUSHSA

**-Gulday nozik, ipakday muloyim qiz bo'lish siri nimada?**

-Har yerda o'zini tuta bilishida, tevarakatrofdagilarga munosabati gul kabi nozik bo'lishida, so'zlaganda sokin, ammo ochiq chehra bilan muloyim muomala qilishda deb o'ylayman.

**-Orastalik ostonadan boshlanadi, shunday emasmi?**

-Har tong quyosh bilan barobar uyg'onib, hovli yumushlarini bajarayotgan onajonimning yonlarida bo'lishga intilaman, uy yumushlariga ko'maklashaman. O'rin-ko'rpalarni taxlab, barcha chang-g'uborlarni erinmasdan artib olaman. Qo'llarimga supurgi olib, bir zumda hammayoqni tozalab qo'yaman. Chinniday supurib-sidirilgan hovlimizdagi sof havodan to'yib-to'yib nafas olaman. Choynak-piyolalarni qayta-qayta yuvib,



oppoq sochiqqa artganimda ham, ukajonlarimni yuzu qo'llarini yuvib erkalatganimda ham, oyim yopgan issiqqina nonni dasturxonga keltirib qo'yganimda ham qalbimda bir mamnunlikni his qilaman. Bu orastalik sari ilk qadamlar bo'lsa kerak.

**-Hamisha sochlaringizni chiroyli**

**o'rib, do'ppi kiyib yurasizmi?**

-Milliylilikni juda qadrlayman. Sharqona urf-odatlarimiz qanday go'zal. Soatlab oyna oldida o'tirib olib, yuzlarimizga har qanday bo'yoqlar chaplagandan ko'ra, o'z husnimiz, o'zbekona kiyimlarimiz bilan yasanib yursak, boshimizga chiroyli iroqi do'ppilarimizni kiysak, bizning qizlarday go'zal qizlar bormi? Mana qarang, hatto maktab formasida ham boshimga iroqi do'ppi kiysam qanday yarashadi.

*«Qiz bola odobi bilan go'zal», deydi dono xalqimiz. Ayniqsa, orasta, xushfe'l, chaqqongina qizlarni kimlar olqishlamaydi deysiz. Ana shunday fazilatlar sizning ham qalbingizni rom etsin, qizlarjon. Suratda sizga jilmayib boqib turgan tengdoshingiz Sadoqat Dadayeva Parkent tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfida tahsil oladi.*

**-Nimalarni orzu qilasisiz?**

-Tumanimizdagi bolalar va o'smirlar Ijodiy Markazidagi raqs to'garigiga qatnashaman. Qo'shiq aytib, raqsga tushish jonu dilim. She'rlar yozaman. Kelajakda yetuk shoira bo'lishni orzu qilaman. Eng avvalo ota-onam orzulagan farzand bo'lishni istayman.

**-Tengdoshlaringizga tilaklaringiz.**

-Barcha dugonalarim elimizning Nodira, Uvaysiy, Zebuniso, Bibixonim, Gulbadanbegim kabi oqila, ziyoli qizlari bo'lishsin.

Ularning xulqu odobi oftob misoli charaqlab, to'lin oy kabi ko'zlarni qamashtirsin.

**Maftuna ABDURASHID qizi suhbatlashdi.**

## BIR YIGITGA QIRQ HUNAR OZ

*Oshxona ishlarini odatda onalarimiz va qizlarimiz bajarishadi. Ular biron yumush bilan uyda bo'lmagan taqdirda ham ketish oldidan biron mazali taom tayyorlab qo'yishadi. Yigitlar-chi, keling, bu borada tengdoshlarimizning fikriga quloq tutaylik.*

## O'QUVCHILAR KO'PMI YOKI MAKTABLAR OZMI?

*Kelajagimiz vorislari yoshlarimizning qanday bilim olayotgani bugungi kunda barchamiz uchun muhimdir.*

*Sinlarda o'quvchilar sonining ko'pligi, o'qituvchilarning esa ozligi, ba'zi bir o'quv muassasalaridagi turli xil muammolar ayrim tengdoshlarimizni bilimsiz va bekorchilarga aylantirmoqda. Xo'sh, bunga kim aybdor?*

**Jahongir JO'RAYEV:**

-Yigit kishi o'z sohasining mutaxassisi bo'libgina qolmay, boshqa kasb-hunarlarini ham o'rgansa ziyon qilmaydi. Menimcha, pazandachilikni ko'pgina yigitlarimiz bilishmaydi, o'zim ham tuxum qovurishni, shirguruch taomini tayyorlashni bilaman, xolos. Xayolingizga boshqacha fikr kelmasin-u, hozir oyimdan ovqat qilishni o'rganayapman. Chunki oilang bag'ridan uzoqda bo'lganingda yoki oliy o'quv dargohlarida tahsil olayotganingda, ayniqsa, bu hunar asqotadi.

**Gavhar RAHMATULLAYEVA:**

-Menimcha, o'g'il bolalar turli xil ovqatlarni tayyorlashni bilishlari lozim. Axir ular uy ishlarida onalariga, opa-singillariga yordam berishsa, buning



**Muzaffar**

**SALIMOV:**

-Ba'zi bir tengdoshlarimizga ovqat pishirishni bilasizmi, deb savol bersak ular mazax qilgandek, bu qizlarning ishi, og'ayni, deb qo'yishadi. Go'yoki bu yigitlar uchun or bo'lar ekan. Lekin ko'pgina oshxonalarda yoki kafelarda ovqatlarni asosan erkak kishilar pishirishadi-ku. Ular o'z kasblarini ardoqlashadi. Kasbni hurmat qilish avvalo insonning o'ziga bog'liq.



### BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

*Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...*

*Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.*

**Shahnoza**

**ABDURAHMONOVA:**

-Hayotda har xil vaziyatlar bo'lishi mumkin. Agar yigitlar ovqat qilishni bilishmasa, albatta qiynalishadi. Inson umrining har soniyasi hisobli, shunday ekan, hayotimizning har daqiqasidan unumli foydalanaylik.



**Umida TOG'AYEVA:**

-Intilganga tole yor, degan xalqimizda ajoyib naql bor. O'qimoqchi bo'lgan kishiga maktablarning ozligi ham, yumushlarning ko'pligi ham, muhit ham ta'sir qilmaydi. Agar biz maktablar oz, o'qituvchilar kam, o'qishga imkon yo'q desak, axir qishin - yozin mehnat qaynagan qishloqlarda yarq etgan oltindek iste'dodli, bilimli yoshlar ko'pchilikni tashkil etishadi-ku. Nima, ular g'aroyib bilimlar maktabida o'qishadimi? Ular ham shunday sharoitlarda bilim olishadi.

**Ijbat RAHMATULLAYEVA:**

-O'qiganimizdan keyin albatta zamonaviy jihozlangan maktablarda o'qigimiz keladi. Mayli, hozircha u darajada to'liq imkoniyatlar yaratilmagandir, lekin men ishonamanki kelgusida ukalarimiz shunday maktablarda o'qishadi. Sharoitni bahona qilmasdan faqat a'lo baholarga o'qishimiz lozim.

**Saodat SODIQOVA tayyorladi,  
Alisher Navoiy nomli Respublika  
Nafis san'at litseyining 10- «A» sinf o'quvchisi.**

**Fazliddin SODIQOV:**

-Ha, buni inkor etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham o'quvchilar juda ko'p. Ba'zi bir sinflarda 40-50 nafargacha o'quvchi saboq olishiga to'g'ri kelmoqda. Bemalol o'tirib yoza olmaymiz. Ko'pchiligimiz mavzularga javob ham berolmaymiz, chunki bunga vaqt yetishmaydi. Istardimki, sinflarda 20-25 o'quvchi ta'lim olsa, hamma o'z bilimiga yarasha bahosini olardi, yaxshi o'qishga harakat qilardi. O'qituvchilarga kelsak, ular yetarli.



**Rohila OTABOYEVA:**

-Menimcha, maktablarimizning qanday bo'lishi biz o'quvchilarga ham bog'liq bo'lsa kerak. Maktab hovlisiga kiraverishdagi tozalikni saqlashdan tortib kutubxonadagi har bir dona kitobgacha avaylasak, ukalarimizga qancha o'mak ko'rsatgan bo'lamiz. Muammolarni bir yoqadan bosh chiqarib hal qilishimiz lozim. Hamma narsaning yechimini topsa bo'ladi.





# NAVOIY NEGA YIG'LAGAN ?

«Boburnoma»ning bayoni

Nabijon BOQIY

chunonchi, Chekmon urushi chog'ida Husayn Boyqaroning xotinlari otlarga mindirilib yo'lga chiqadilar. Biroq, Shahribonu otga minishni istamaydi

To'qqiz yuz hijriy (1496-97) yili Sulton Husayn Boyqaro bilan to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon Mirzo orasida ixtilof paydo bo'ladi, bu ixtilof rosmi urushga aylanib ketadi. Sababi, o'tgan yili Balx shahri Badiuzzamonga, Astrabod esa Muzaffar Mirzoga in'om etilgan edi, lekin Badiuzzamon Astrabodni o'gay ukasi Muzaffarga berishni istamaydi. O'rta juda ko'p elchilar aralashadi,

Badiuzzamonni insofga keltirmoqchi bo'ladi, biroq u ikki oyog'ini bitta etikka tiqib oladi: «Mening o'g'lim Muhammad Mo'min Mirzoni xatna qilganda, sulton Astrabodni unga bag'ishlagan edi», deydi.

Mo'min Mirzo hali balog'at yoshiga yetmagan, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharni boshqarish, hokimlik qilish hali qo'lidan kelmasdi. Hartugul, o'sha paytlarda o'g'il bolalar uch-to'rt yoshida xatna qilinishini inobatga olsak, og'zidan ona suti ketmagan norasida go'dakning hokim bo'lishigacha eng kamida o'nta qovun pishig'i borligi ma'lum bo'ladi. To'g'ri, podshoh bobosi o'z nabirasiga xazinadan jaraq-jaraq tillolar yoki butun boshli viloyatni, shaharni hadya qilishi mumkin. Biroq, yosh bola tillo tanga bilan «to'p-tosh» o'ynaydimi? Shaharga, viloyatga hokim bo'lib qanday karomat ko'rsatadi? Aytaylik, Balx hokimi Badiuzzamon ayni chog'da Astrabodni ham boshqarishi mumkindir. Ammo bu ikki shahar orasidagi masofa uzoq ekanini, boz ustiga, aloqa vositalari rivojlanmaganini nazarda tutsak, bir kishining ikkita qayiqqa oyoq qo'ygani kabi holat ro'y berishi ayon bo'ladi. Ya'ni, qayiqlar ilk to'lqin paytida ikki tomonga ajraydiyu, kishi g'arq bo'ladi. Demak, bu vaziyatdagi oqilona yo'l - toki Mo'min Mirzo balog'atga yetguncha Astrabodni Muzaffar Mirzo boshqarib tursa, maqsadga muvofiq ish bo'lardi. Xo'sh, Badiuzzamon shugina oddiy haqiqatni nima uchun tushunmaydi? Tushunardi, lekin bu yerda boshqa g'araz bor edi: u o'gay ukasini o'ziga raqib deb bilardi, dushman deb bilardi. Ular bir otaning farzandi edi-yu, biroq onalari boshqa edi.

Badiuzzamonning onasi Sultonbegim bo'lib, u Boyqaroning katta xotini edi. Boburning shahodat berishicha, «Ko'p kajjulq edi. Sulton Husayn mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajjulqlig'idin mirzo batang keldi, oxiri qo'ydi va xalos bo'ldi. Har ne qilsun, haq mirzo tomonda edi. Yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o'zidayoq uning do'xaxidir. Tangri hech musulmonga bu baloni solmag'ay! Iloyim, yomon xo'yluk, kajjulq xotin olamda qolmag'ay!»

Odatda, «qizlarning hammasi yaxshi bo'ladi, lekin yomon xotinlar qaydan paydo bo'lar ekan?», deb hayron bo'ladi. Albatta, Sultonbegim ham ilgari yaxshi qiz, shirin kelinchak bo'lgan, Boyqaro uni yaxshi ko'rgan. Lekin Hirot taxtini qo'lga kiritish uchun jang qilib yurgan kezlarida ishonchli ittifoqchi topish maqsadida qozoq beklaridan birining Cho'libegim ismli qiziga uylanadi. Hozirgi zamon ta'biri bilan aytganda, «raschyot asosida turmush quradi». Bunday oilaning zamini omonat bo'ladi. Biroq, kuyov yoki kelin o'zlari ko'zlagan niyatiga erishguncha tinch-totuv yashaydilar. Boyqaro taxtni egallash uchun faqat qozoq beklarining madadidan foydalanadi. So'ngra sobiq sulton Abdusaid Mirzoning Shahribonu ismli «tegma-nozik» qiziga uylanadi. Biz Shahribonuni «tegma-nozik» deb jo'rttaga piching qilayotganimiz yo'q. Balki, u rostdan ham «oq bilak oyim» bo'lgani uchun shunday deyapmiz. U paytlarda podsho uzoq safarga otlansa, haram ham birga borardi:

(ehtimol, u otdan yiqilib tushishdan qo'rqa kerak, qaydam). Bu xabarni eshitgan Husayn mirzo darhol Shahribonuning talog'ini beradi va uning singlisi bo'lmish Poyanda Sultonbegimga uylanadi. Qiziqki, u «opamni bebaxt qilgan yaramasga tegmayman», demaydi. Chamasi, bunday deyishga haddi sig'maydi, shekilli. Aslida Shahribonu «otamni o'ldirib, taxtni olgan dushmanga xotin bo'lgandan ko'ra, qoro yer bo'lganim afzal», deganida To'maris kabi tarixda qahramon bo'lib qolardi. Lekin u zaifaligiga boradi, miq etmasdan Boyqaroga yor bo'ladi. Ehtimol Shahribonu aynan shu yo'l bilan Boyqaroga qarshi isyon ko'targandir...

Astrabod hokimligiga da'vogar bo'lgan Muzaffar mirzoning onasi Xadichabegim edi. «O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotun edi», deydi Bobur mirzo u haqda.

Boyqaro Opoqbegimga uylanadi. Bu xotin farzand ko'rmaydi, ammo sultonning boshqa xotinlaridan bo'lgan o'g'illarini xuddi o'z bolasidek parvarish qiladi, tarbiyalaydi. «Mirzoning behuzurliklarida bisyor yaxshi xizmat qilur edi, haramlaridin hech kim muncha xizmat qila olmas edi» (Bobur).

Boyqaro Astrabodni Muzaffar mirzoga olib berish uchun Badiuzzamon ustiga qo'shin tortib borishga hozirlikni boshlab yuboradi. O'rtada qon to'kilishi, begunoh odamlarning nobud bo'lishi muqarrar bo'lgach, hazrat Navoiy marhamatdan, karamdan ajralib qolgan sulton do'sti bilan oralaridagi gina-kudratlarni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, Badiuzzamon huzuriga elchi bo'lib boradi.

-Mirzo, qani, qo'lingizni oching,- deydi hazrat. Badiuzzamon o'ng qo'lining kaftini ochadi. Navoiy davom etadi:- Mana endi hohlagan barmog'ingizni tishlab ko'ring.-Mirzo ko'rsatkich barmog'ini tishlaydi.- Og'ridimi?

-Og'ridi.

-Men-da xuddi sizning barmoqlaringiz kabi tanangizdagi bitta barmoqman, padaringiz esa mening do'stim, u ham bitta barmog'im. O'zingiz ayting-chi, endi men qaysi barmog'imni tishlashim mumkin?- Mirzo yerga qarab miq etmay o'tiradi. - Beayb parvardigor, bo'tam. Otangizning ham o'ziga yarasha ayblari bor, u ham xom sut emgan banda. Agar undan gunoh o'tgan bo'lsa, farzand sifatida kechiring, u ham kechiradi. Kechirimli bo'laylik, bo'tam....

-Taqsir, axir, Astrabod Mo'min Mirzoga bag'ishlangan!- deb Badiuzzamon battar g'ashlandi. - Axir, u qanday podshohki bugun bitta gapni aytsa-yu, ertasi kuni lafzidan qaytib o'tirsa?!

-Bo'tam, qulog'ingizni tuting,- deydi hazrat Navoiy. Mirzo engashgach, shivirlab bir nimalar deydi. Nimalar deganini bir Badiuzzamon eshitadi, bir Oллоh eshitadi, boshqa hech kim eshitmaydi.- Ma'qulmi, bo'tam?

-Ma'qul,- deydi Badiuzzamon.

-Endi bu so'zlarni unuting,- deydi hazrat.

-Qaysi so'zlarni?!- deydi Badiuzzamon.

Hazrat mirzoning fahm-farosatidan, nozik didligidan mutaasir bo'lib, birdan yig'lab yuboradi. Ko'p yig'laydi, to'yib-to'yib yig'laydi.

Navoiy mirzoning qulog'iga pichirlab nimalar degan edi?.. Buni hech kim bilmaydi, buni faqat faraz qilish mumkin. Taxminan, «men Xadichabegimni oqila ayol deb o'yildim, lekin u padaringizning qalbiga kirib olgan urg'ochi shayton ekan, bo'tam!

(Davomi 4 betda)

## NUQTANING QUDRATI

Mir Alisher Navoiy o'z g'azallarini zamonasining eng zo'r bilimdon hattotlariga ko'chirtirardi. Nima bo'ldi-yu, o'z hattotining tobi qochib qoldi. Bundan xabardor bo'lgan, o'zini mashhur hattotlardan deb yurgan bir olifta kishi: «Rozi bo'lsalar, Alisher Navoiyning xizmatini jonim bilan bajarardim», debdi.

Shoir uning bu gapini eshitib, she'rlarini ko'chirtirishga beribdi. Bir payt katta mushoirada Alisher Navoiyning qulog'iga: «Malikul shuaroning o'zlari nuqson-qusurga yo'l qo'yibdilar, boshqalardan nimani ham kutish mumkin», degan gap chalinibdi.

Gap nimadaligini darrov fahmlagan shoir boyagina ko'chirtirgan g'azallarini olib o'qibdi, qarasa, o'zi aytgan gap emas emish. Maqtanchoq hattot tushmagur «ko'z» so'zidagi bir nuqtani tushirib qoldirganidan bu so'z «ko'r» bo'lib qolgan va she'r ma'nosi o'zgarib, aksincha chiqqan ekan.

Alisher Navoiy ahli fozillarga qarab:

-Ko'zimni ko'r qilganlar ko'r bo'lsin!-debdi-da, hattotga javob berib yuboribdi. Arab imlosida «z» nuqtasiz yozilsa, «r» bo'lib qoladi.



U otangizni yo'ldan urib, har qanday yovuzlikdan ham qaytmaydi. Shu bois otangiz uning domiga tushib g'azab otiga minib turgan paytda siz past tushing, mirzo! Aks holda, temuriy sulton nomi ham, temuriy shahzoda nomi ham abadul-abad badkor bo'ladi, isnodlarga burkanadi», degan bo'lishi mumkin.

Afsuski, ota g'azabdan tushmaydi, o'g'il past tushmaydi. Sulton Husayn Balx va Astrabod ustiga qo'shin tortadi. «Yakchirog' o'langiga quyidan sulton Husayn mirzo, yuqoridin Badiuzzamon mirzo keldilar. Chahorshanba kuni Ramazon oyining g'urrasida Sulton Husayn mirzoning bir necha beklari va bir pora ilg'ori bila ilgariroq keldi. Urush uzoq davom etmadi, bosildi. Ko'p yigitlar asirga tushdi. Sulton Husayn mirzo barchasining boshini oldirdi... Ne qilsin, haq aning tarafi ekandir. Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg'a mashg'ul edilarkim, Ramazondek mutabarrak va aziz oyga bir kechalik fursat qolganda, otasidan iymanmay, Tangridan

## NAVOIY BOBOM

*Sahar chog'i gullar oromin,  
O'g'irladi bulbul kuylari.  
Bedor kezar bog'da Alisher,  
Borliq qog'oz, qalam o'ylari.*

*Zavq olardi bu xonishlardan,  
Minglab g'azal qalbdan yaralar.  
Maftun bo'lib «navo» so'ziga,  
Navoiydek siymo taralar.*

*Bobomizning buyuk merosin,  
O'rganamiz, saqlaymiz omon.  
Ming asrlar bulbul sayraydi,  
Kuyiga jo'r Navoiy hamon.*

*Mohinur HAYDAROVA,  
Poytaxtimizdagi 165-maktabning  
5-sinf o'quvchisi.*

qo'rqmay, hanuz ishi chog'ir ichmak edi, mundog' bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav o'tgan elga har kim dast topqay» (Bobur).

Qisqasi, sulton Husayn Balxa - Badiuzzamon ustiga, Muzaffar mirzo esa Astrabodga- Mo'min mirzo ustiga bostirib boradi Badiuzzamon qochib qutiladi lekin uning qutqusiga uchil jangga kirgan, asir tushgar ming-minglab yigitlar nobuc bo'ladi. Ustiga ustak, Mo'mir mirzo asirga olinadi.

Husayn Boyqaro Hirotga g'alaba bilan qaytadi. Mo'mir mirzo ham Hirotga keltiriladi Kechasi ichkilikbozlik chog'ir bazmi bo'ladi Xadichabegim esa mast bo'lil es-hushini yo'qotgan Husayn Boyqaroga Mo'min Mirzon qatl etish to'g'risida farmong muhr bostiradi. Xufton chog'



Mo'min Mirzo qatl etiladi.

Ertasi kuni Hirot motamsaro bir tusda uyg'onadi: podshoh o'z nabirasini qatl etganini hali islom olami eshitmagan edi, lekin bu xabar yashin tezligida yetti iqlimga tarqaladi. Bu paytda Shayboniyxon Xorazmni Ko'pak biyga berib, o'zi Samarqandga kelgan, endi u Jayxundan o'tib, Hirotga - temuriylar saltanatining yuragiga zarba berishga hozirlik ko'ra boshlaydi. Yetti-sakkiz yildan so'ng sulton Husayn Boyqaroning Muhammad Zamondan boshqa avlodajdodi qolmaydi, barchasi qirilib bitadi.

Biz: «Husayn Boyqaroning Xadichabegimga uylanishi - temuriylar saltanatining inqirozidan nishonadir», dedik. Ustoz adiblar esa: «Mo'min Mirzoning o'ldirilishi - temuriylar saltanatining inqirozidan nishonadir», deyishgan edi. Hazrat Navoiy ham saltanatning inqirozga yuz tutganini bilardi - u bekorga yig'lamaydi, bekorga bo'zlamaydi.

*Hazrat Navoiyning nazari tushgan,  
Yuragida balki sher qoni jo'shgan.  
G'unchadek qalbida ohi uvishgan  
Mo'min Mirzo ukam, seni o'ldirdilar...  
(Abdulla Oripov)*

## BUYUKLARMANGU YASHAYI

Bobokalonimiz Alisher Navoiy haqida qancha gapirilsa ham, ozdek tuyulaveradi. Bobomizning asrlar osha yashab kelayotgan bir qator g'azallari haligacha hofizlarimiz tomonidan kuylab kelinmoqda. Bizning maktabimizda Alisher Navoiyning tavallud ayyomiga bag'ishlab tadbir o'tkazilish ko'zda tutilmoqda. Kechada Navoiyning yoshligi, uning hayot yo'li teatrlashtirilgan tomosha orqali o'quvchilarga yetkaziladi. Ularning bizlarga qoldirgan nodir durdonalari yana ko'p asrlar osha yashayversin.

*Iroda GABBASOVA, Chilonzor tumanidagi  
181-maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.*

## ALISHERNING YOSHLIGI

(qissa)

OYBEK

*Tarix so'qmoqlari izimda cho'tir,  
Har bir hok shivirlar: «Bir lahza o'tir!»  
Qushlar tili piyri-yurakda tilak,  
Izlaymen javohir qo'limda elak.*

Kiftiga quyosh qo'ndirilganday charaqlagan keng chorchari mehmonxonada yangi yavmud gilam ustida tig'iz davra qurgan qo'noqlar, yaqin do'stlar ajoyib suxanvarlik va samimiy suhbat qilurlar. Katta kashmiriy shol dasturxon uzra pista-bodom, mag'iz, asal, xilma-xil halvolar to'kilgan. Mehmonlar oshab ichish ila turli qiziq voqealardan gaplashurlar, majlisda xushsuhbat bir dam uzilmas edi. G'iyosiddin Kichkina kamtar, muloyim fe'lli, ko'zlari aqlli, kalta soqoli o'ziga yarashgan, jussasi kichik kishi. Ko'pchilik uni G'iyosiddin Kichkina der, ammo yaqin do'stlari ko'pincha Kichik bahodir der edilar.

Xuroson o'lkasida moliya ishlarida muhim mansabni egallagan, Sabzavor hokimi ham bo'lgan G'iyosiddin Kichkina yuksak mavqeli beklardan edi. O'lkaning turli viloyatlarida yura-yura, nihoyat osmoni go'zal moviy nurga cho'mgan, o'zining sevimli shahri Hirotidagi hovlisida istiqomat qilur edi. Hovli ham Hirotning shimoliy sharqida, serdaraxt, xush bir manzilga qurilgan edi.

Sharaqlab qaynab turgan, qornida quyosh jilvasi o'ynagan katta mis qumg'onni ko'tarib kirgan mulozim choynakka xushbo'y choyni damlagach, tavoze ila xo'jasiga uzatdi-da, yengil yurib chiqib ketdi. G'iyosiddin Kichkina piyoz po'sti kabi shaffof nafis xitoy piyolalariga choy suzib do'stlariga bir-bir uzatar edi. Majlis ahliidan biri, yetmishlardan oshib, saksonlarga borgan qariya, barloslardan edi. Qosh-qovog'i osilgan bu kishi dastavval odati bo'yicha bir yo'talib olgach, so'zlarini qo'rg'oshin salmoqligi ila donalab gapira boshladi. Yoshligida Temurning jasur jangchilaridan, sevimli mard yigitlaridan bo'lgan qari barlosning yuzidagi qayg'u ko'lkasini shu tobda do'stlari ochiq ko'rar, chuqur his qilur edilar.

-Turkistonning Xuroson mamlakatining ahvoliga bir nazar tashlasangiz... Bilmadim, oqibati ne bo'lur! Hazrat Temur yaratgan davlat chil-chil yemirildi. Temurdan so'ng xiyla vaqt shahzodalarning boshi jangdan chiqmadi, har biri hamisha muttasil o'z nafsini o'ylaydi, Sulaymon taxtini yolg'iz o'ziga ravo ko'radi. Ha, shunday shahzodalarning ona suti hanuz og'zida bo'lgan eng kichigi ham, otning oldingi oyog'i o'zim bo'laman, deydi. Muddaolari shu barchasining. Hech bir aqli komil sohibning ishi emas bu. Davlatning ildizi bir bo'lmasa, xalq jabr dengiziga botib ketgusi. Qarshimizdagi foje ahvol shuldir, do'stlarim. Bu yanglig' andishalar kaminaning ko'ngliga kundan-kun anduh to'ldirib borur. Xoqon Temurning tantanasini ko'rgan biz kabi qariyalarning bunday falokatga zarra qadar bardosh bermog'i, mutlaqo qiyindir. Buningdek dahshatli falokatni daf etmoq tadbirini axtarish-barchamizning burchimiz.

Quyuyq tuman kabi o'rtaga cho'kkan sukunat bir necha daqiqa davom etdi. Keksa barlosning ayrganlaridan ta'sirlanib, chuqur xayolda o'tirgan ma'murlardan biri sovib qolayozgan choyni tez-tez ho'pladi-da, piyolani dasturxonga qo'ydi. Belida xanjar, boshida suvsar telpak, gavdasi miqti ma'mur siyrak soqolini bir silab olgach, quyuyq qoshlarini ko'tarib, teran joylashgan kichik ko'zlarini kekxa barlosga tikdi:

(Davomi bor)

# «BIZNI UNUTQANNI UNUTMAQ KERAK»

Nuriddin MIRZO

Taniqli sharqshunos-missioner V.Nalivkin «Qo'qon xonligining qisqacha tarixi» (1888y.) kitobida: «Yevropa oriyentalistlari orasida nihoyatda masahhur bo'lgan «Boburnoma» sartlar mahalliy aholi o'rtasida deyarli noma'lum edi. Nisbatan ziyoli

tomonga salom beravermagan edi. Bir so'z bilan aytganda, shirinsuhan, muomalada har doim odob doirasini saqlagan bo'lsa-da, ammo e'tiqod masalasida sobit zot edilar. Iloyim, u kishini Olloh mag'firat aylasin! Demoqchimizki, ziyoli hech bo'lmasa yaxshi bilan yomonni farqiga borishi kerak. Agar yaxshi bilan yomonning farqi bo'lmasa, pozitsiyada muqim turishi lozim.

qishda kishi o'zini sovuqqa oldirib, hatto o'pkasini shamollatib qo'yishi hech gap emas. Bobur o'sha paytda ham yo'l boshchi - lider edi: istasa, issiq po'stinga burkanib olib, sharob ichib o'tirishi mumkin edi. Lekin u o'ligini birovlarning yelkasiga ortib qo'ymasdi, g'ayratli zot edi. G'ayratli bo'lgani uchun ham boqimandalik kayfiyati unga begona bo'ladi.

Xo'sh, nima uchun Boburning sovuqda qolib ketganini birdan eslab qoldik? To'g'ri, «Boburnoma»da bayon qilingan manzara go'zal, issiq uyda o'tirgan kishi beixtiyor qor bosgan tog'larga ketib qolishni qo'msab qoladi. Lekin biz faqat shirinxayol surish uchun bu voqeani eslamadik. Keyinchalik Bobur to Hindistonni zabt etguncha, bot-bot mushkulotga duch keladi... Ajabki, keyingi paytlarda qaysi go'rdandir «tadqiqotchi» paydo bo'ldi: u go'yo Boburning «kasallik tarixi»ni topgan emish («Fidokor»da), o'sha «tarix» e'lon qilindi. Muallifning e'lon qilishicha, «Bobur sil kasalligi xastaligi bilan vafot etgan» emish! Yo, alhazar! Nahotki, bu masalada Boburning o'zidan ko'ra ishonchliroq guvoh bo'lsa?! Bobur Mirzo qachon shubhali ish qildi, qachon ishonchni yo'qotdi?!

Mana o'zlari qanday guvohlik beradi: «Muhammad

Humoyun Sambalg'akim, aning joygiri erdi, ruxsat berildi. Olti oygacha anda edi: zohiran aning yer va suyi xush yoqmadi. Isitma tutar ekandur bora-bora uzoqqa tortar. Farmon berildiki, Dehliga keltirub, Dehlidan kemaga solib keltirsinlarkim hakimi hoziqlar ko'rib dardig'a davo qilsinlar. Bir necha kunda daryo yo'li bilan kelturdilar va tabiblar necha doru-darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, u shundoq dardlarga darmon budurkim, yaxshi nimarsalardan tasadduq

bo'lgan tanish-bilishlarimga bu kitobni ko'p marta ko'rsatdim, lekin har gal ular nafaqat bu kitobning mazmuni bilan, hatto shunday kitob borligidan ham bexabar ekaniga ishonch hosil qildim. Shakshubhasiz mumtoz asarning muallifi esa negadir yomon nom qoldirgan edi. Farg'onaning turli burchaklarida Boburning o'limi to'g'risida bitta afsonani eshitib ajablandim: «Bir safar osmoni falakdan: «Xon Boburni ur, ur!» degan sado keladi. Olomon Boburning ustiga tashlanadi va uni urib o'ldiradilar». Bunday bema'ni afsonaning paydo bo'lishiga nima sabab bo'lganini aytish qiyin, lekin bu hol Farg'ona sartalari orasida unchalik mashhur emasligini ko'rsatadi», deb yozgan edi.

Rostini aytsam, V.Nalivkin yozgan gaplariga ishonish qiyin. Nahotki, farg'onaliklar buyuk vatandoshi to'g'risida XIX asrning oxirlarigacha deyarli hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan?.. Axir, «Boburnoma» 1857 yildayoq rus tiliga tarjima qililib, Qozon shahrida N.Ilimskiy tomonidan chop etilgandi-ku?!

XIX asrda xalqning faqat 5-6 foizi savodli edi, degan gaplarni biz istiqloq davrida zo'r berib rad etdik (va to'g'ri qildik). Chunki XIX asrda ham Turkiston hududida mingdan ortiq madrasa

bo'lgan, mahalliy aholining farzandlari xorijiy mamlakatlarda ham tahsil ko'rganlar. Biroq, o'qish va yozishni bilgan odamni savodli deyish, ziyoli deyish mumkin emasligini shu kunlarda ko'rib turibmiz. Axir, ziyoli inson zulm bilan zakovat, adolat bilan adolatsizlik nima ekanligini farqlay olishi lozim. Savodli odam har kimning nog'orasiga o'ynayvermaydi. Shamol qayoqdan kelsa o'sha tomonga qarab egilib-bukilavermaydi... Beixtiyor, yaqinda vafot etgan taniqli olim Laziz Po'latovich Qayumovning ibratli umri xayoldan o'tadi. Ochig'i, biz u kishini «ortodoks» adabiyotshunos deb bilardik, unchalik yoqtirmasdik. Lekin tahsinga sazovor tomoni shundaki, u kishi boshqalardek «men e'tiqodimdan qaytdim», deb jar solmadi. Dunyoning ajab savdolarini jimgina kuzatib yurdilar, qandaydir imtiyozlar uchun yelib yugurmadilar va bandalikni bajo keltirdilar. Aslida, u kishi umr bo'yi muhtoj kishilarga qo'llaridan kelgan yordam bergan, muayyan masalada qat'iy bir pozitsiyada turgan, hadeb so'lu sog'

*Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu, Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?*

Bobur Mirzo yuqoridagi matla'ni melodiylashtirib 1506 yilda, ya'ni 23 yashar paytida yozadi. Kobul atrofida sargardon bo'lib yurgan, toj-taxtdan mosuvo bo'lgan Jahongirni «ko'ngil xasta»ligiga sabab bo'lgan voqea bunday bo'ladi:

«Bir haftag'a yovuq qor tepib, kunda shar'iy-bir yarim shar'iydin ortuq ko'chulmas edi. Qor tepar kishi men edim, o'n-o'n besh ichki bila va Qosimbek

## BOBUR VA HUMOYUN

Bobur dovyurak, epchil, kuchli, o'ta idrokli inson bo'lgan. U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan. Farzand uchun o'z jonini berishga tayyor turgan otadir.

Bir kuni Humoyun betob bo'lib qoldi. U tuni bo'yi alahlab, behush yotdi.

Saroy tabiblari bu og'ir dardga hech bir davo topolmadilar. Humoyunning onasi Mohimbegim yum-yum yig'ladi. Bobur o'rtandi. Og'ir paytlarda Boburga suyangan, undan yordam olishga o'rgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir, Bobur ham chorasizlikdan qiynalardi.

Bobur o'ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o'tib, Humoyunning to'shagi yoniga keldi.

-Humoyun jigarbandim. Sening betobligingga men toqat keltiray. Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib, menga bersin...

Gulbadanbegimning yozishicha, o'sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi. Boburning esa mazasi qochib, yotib qolibdi.



*Pirimqul QODIROVDan.*

edi, ikki o'g'li - Tengriberdi va Qanbar Ali bila yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu mazkur bo'lg'onlar yayoq yurub, qor tepar eduk, har kishi yetti-sekkiz-o'n qari ilgari yurib qor tepar edi. Bir necha qadam borg'onidin so'ng ilgarigi kishining hamla quyib turar edi, kishi ilgari o'tar edi, bu o'n-o'n besh-yigirma kishi yayoq kishi qorni kim tepar edi, oncha bo'lur edikim, otni tortsa bo'lur edi. Bo'sh otni tortilur edi, uzangisiga, qop torligigacha ko'p-ko'p, bota-bota bu bo'sh ot ham o'n-o'n besh qadamcha yo'l yurib toliqar edi. Bu otni yoqag'a tortib, yana bir bo'sh otni ilgari tortilur edi. Ushbu dastur bila biz o'n-o'n besh - yigirma kishi qor tepduk...

O'shal kecha qulog'imga sovuq ta'sir qildi... Kepakning ayog'in, Suyundiq turkman iligin, yana Axining ayog'in o'sha kecha sovuq eltdi...»

Demak, Boburning qulog'ini ushuk uradi, boshqalarning oyoq-qo'llarini sovuq oladi. Qahraton

Ko'pdin berikim yoru diyorum yo'qdir, Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qdir. Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdir.

budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak, bas, o'sha olmoskim, Ibrohim urushida tushib erdi.

M u h a m m a d Humoyunga itoat

qilib edingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evazig'a nechun bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo'lubdur... Va andin o'tubdurkim men aning betoqatligini toqat kelturgaymen. O'shal holatga kirib, uch qatla boshidan o'lgurib, dedikim, men ko'tardim har ne darding bor!

O'shal zamon men og'ir bo'ldim, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qo'pti, men noxush bo'lub yiqildim. A'yon davlat va arkoni mamlakatni chorlab, bay'at qo'llarini Humoyunning qo'llariga berib, valiahdlig'iga nasb qildim. Va taxtni anga topshirdim...»

Angladingizmi, Boburga o'sha olmosni Ko'hi nurni tasadduq qilish kerak, deb maslahat beradilar. Chunki bu javohir, haqiqatan ham dunyodagi qimmatbaho san'at asari edi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir u Buyuk Britaniyada Qirollik muzeyida saqlanadi. Hech kim uning narxini bilmaydi. Mish-mishlarga qaraganda, Ko'hi nur butun dunyoning uch kunlik harajatini ko'taradigan qimmatga ega... Agar AQShning bir yillik budjeti ikki trillion olti yuz milliard dollar ekanini nazarda tutsak, demak, Ko'hi nurning bahosi eng kamida bir milliard dollar turar ekan. Bobur Mirzo esa o'z jonini (Humoyun nazarida) milliard dollardan ham qimmatroq baholaydi va

«o'zga yaxshiroq nimarsa» yo'qligiga qat'iy ishongan holda bemor o'g'lining boshidan uch marta aylanib, bexush bo'lib yiqiladi. Xushiga kelgach, toj-taxtdan o'g'lining foydasiga voz kechadi. «Boburnoma»ni oqqa ko'chirgan kotibning guvohlik berishicha, «to'qqiz yuz o'ttiz yettida (1530) Jumodul-avval oyining oltisida chahorbog'dakim, o'shal podshoh o'z qo'li bilan obod qilib erdi, holi mutayyir bo'lub, bu olami bevafo ni padrud qildi».

Qolaversa, Bobur jangi-jadal chog'larda sil kasaliga giriftor bo'lgan bo'lsa, oradan salkam chorak asr o'tgach, ayni qirchillama yigit paytida birdan vafot etishini ateist-tadqiqodchi qanday izohlaydi? Ma'lumki, sil kasalligining «qalamcha»lari bir-ikki



## ANDA JONI QOLG'ON BOBUR

Inson va Vatan tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Porloq kelajakni inson ajdodlari hoki o'tgan o'z vatanida yaratadi. Zero, Boburni yig'latgan dard Vatan hissi edi.

*Yillar ham o'tdilar Vatandan yiroq,  
Shoirning qalbini o'rtadi firoq.  
Asarlarda aks etdi Vatanning yodi,  
G'azallardan to'kildi shoir faryodi.  
Umr shami so'ndi, titradi jahon,  
Bir tomchi yosh bo'lib qoldi Andijon.*

*Shohida ORTIQOVA,  
Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi  
14-o'rta maktabining 8-sinf o'quvchisi.*

## XAZON YAPROG'I YANG'LIG'...

*Xazon yaprog'i yang'lig' gul yuzing hajrida sarg'aydim,  
Ko'rib, rahm aylagil, ey lolagul, bu chehrai zardim.  
Sen, ey dil, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,  
Ayog'ingg'a tushib bargi xazondek muncha yobordim.  
Latofat gulshanida gul kabi sen sabzu xurram qol,  
Men arshi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.  
Xazondek qon yoshim, sarig' yuzimdin el tanaffurda,  
Bahor rangi, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqardim.  
Ne tole'dir mandakim, axtari baxtim topilmaydi,  
Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.  
Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Bobur, barobardur,  
Bu olamda o'zimni chin yomon, yaxshidin o'tkardim.*

*Mirzo BOBUR*

har ayb va hurarkim bayoni voqe edi, taxrir ayladim. O'qug'uvchi ma'zur tutsun, eshitguvchi tarruz maqomidin o'tsun».

Xo'sh, o'zini ham, o'zgani ham faqat haqiqat ko'zgisida ko'rgan zotni kasalmand degan kasning o'zi sog'mikan? Bizga Bobur Mirzodek ulug' zotni ato etgan Oллоhi Karimga qayta-qayta shukronalar aytamiz va buyuk bobomizning oxiratini obod aylashni ham faqat O'zidan so'rab qolamiz. «Bizni unutmagan unutmagan kerak», degan kalom bekorga aytilmaganini hargiz yodimizda saqlaymiz. Chunki ulug' tog'larni unutmagan el hech qachon boshini azot ko'tarib yurolmaydi, yuksaklikni ko'zlay olmaydi. Unutmagan el ulug'likka ham munosib bo'lmaydi.

*Ikki daryo oralig'ida  
Haq - adolat topmadi qaror -  
bari ketdi  
yurtni sog'inib,  
g'urbatlarda yig'lagani zor.  
Tangri bunyod etgandan buyon  
qancha olchoq,  
qancha yotlarga  
quchoq ochgan yurt torlik qildi  
qancha odil,  
fozil zotlarga.  
Kimni aytay,  
kimni eslatay,  
sanay qaysi ulug' zotlarni,  
qay iqlimdan ko'rsatay bugun  
ul zotlarni yutgan komlarni...  
Birodarlar,  
bo'ling ehtiyot,  
birodarlar,  
yo'llarga boqing-  
Tangri kabi keksa ochunda  
siz uchinchi daryoday oqing.  
Haq-adolat dilingizdadir,  
avaylang, hech zavol yetmasin,  
ular kelar...  
Tag'in moziyga  
yarim yo'ldan qaytib ketmasin!*

*Shavkat RAHMON.*

## SHE'RIYAT MULKINING SULTONI

Alisher Navoiy... Bu so'zni eshitishim bilan so'z o'lkasining nafis gullaridan guldastalar yasab, shu o'lka shoxiga aylangan shoir, o'z xalqining dardini tushunib, unga darmon bo'lguvchi inson ko'z oldimda gavdalanadi. Navoiy butun umrini ona tilimizning rivoji uchun sarflagan. Uning «Hamsa», «Xazoniy ulmaoniy» kabi ezgulikka yo'g'rilgan oltinga teng asarlari bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan va yo'qotmaydi.

*Sanobar JUMANOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis  
san'at litseyining 9-«A» isnf o'quvchisi.*




yildayoq o'pkani adoyi tamom qiladi...

Bizningcha, kimdir qandaydir g'arazni ko'zlabmi, xonaki tadqiqot o'tkazib, kurakda turmaydigan tahminni ilgari sursa, unga mahliyo bo'laverish shart emas. Avvalo, u qanday manbaalarga suyanганиni tekshirib ko'rmoq darkor. Agar birlamchi manbaa ishonchliroq bo'lsa, boz ustiga Yevropa sharqshunoslari tomonidan allaqachon tan olingan bo'lsa, mutlaqo ishonmaslik kerak. Ajabki, karomatli zot kelajakda qandaydir shubha-gumonlar uyg'onishi

mumkinligini oldindan sezgandek, 912 hijriy yil voqealari bayonini qog'ozga tushirayotib, bunday deganlar: «Bu bitilganlardin g'araz-shikoyat emas, rost hikoyadurkim, bitibdurmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning tarifi emas, bayoni voqei bu edikim, taxrir etubdurmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqei tahrir etilgay. Lojaram ota-og'adin har yaxshilik va yomonlikkim, shoya edi taqdir qildim va qarindosh va begonadin

## BIR SOATLIK YAXSHI DARS

*Aziz bolajonlar! Ciz albatta tong payti O'ZBEKISTON radiosidan taraladigan «Kelajak tongi»ni eshitasiz-a? Bu eshittirish qariyb yarim asrdan beri bolalarga uzatiladi. Uning ilk boshlovchilaridan biri - Shavkat Hamidov bilan suhbatlashamiz.*



Ota o'g'ili

Ota o'g'ili

### RADIONING HAM, GAZETANING HAM O'Z SO'ZI BOR.

5-sinfda o'qiyotgan paytimda Turg'un aka Yaylovov meni ilk bor radioga yetaklab keldi. Nutqimning ravonligi, matnlarni burro o'qishimni eshitib, rejissyor Ne'mat Do'stxo'jayev, muharrirlar Iffat Rahmonqulov, To'ra Ismoilovlar «Pioner ertaligi» eshittirishini olib borishimda ustozlik qilishardi. O'sha paytda radio joylashgan manzil bilan uyimiz orasi ancha yo'l bo'lib, ko'pincha birinchi soat darslarga kechikib qolardim. Lekin darsni ham, eshittirishni ham uddalashga intildim. Hatto sinfdoshlarim Sharifa, Ozod, Baxtiyor, Tursunoylarni ham qiziqtirib, radioga olib kelardim. Birgalikda eshittirish olib borardik. Qiziquvchanligim bois maktabimiz hayotidan turli maqolalar, kichik-kichik hikoyalar yozib, hozirgi «Tong yulduzi», «O'qituvchilar», «Ma'rifat» gazetalariga olib borardim. Yozganlarim tez-tez chop etilib turardi. Maktabda hamma meni «Shoir» deb chaqirar, o'zim ham bu ismga ko'nikib ketgan edim.

Maktabni tugatganimdan so'ng, «O'qituvchilar» gazetasining xatlar bo'limida ishlay boshladim. Ishdan ajralmagan holda Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU)ning kechki bo'limida tahsil olardim. O'qish jarayonini ish jarayoni bilan qo'shib olib borish hayotimda katta maktab yaratdi. Gazetada lavha, ocherk, felyeton yozishlarni o'rgandim. Bu borada ustozlarim Ubaydullo Salohiddinov, Ja'far Mahmudov, Sulton Akbariyardan behad minnatdorman. Ko'pincha bizga respublikamizning turli viloyatlariga borib, maktablarda dars o'tish jarayonlarini kuzatish va ularni yoritish vazifasi topshirilardi. Qaysi ilm maskanida saboq berish jarayoni qiziqarli, yangiliklarga boy bo'lsa, uning tub ildizini, qaysi dars xo'jako'rsinga yuzaki o'tilsa, o'sha o'qituvchining kamchiligini bo'yamasdan, darhol gazeta so'zi bilan o'z holicha yoritardik. Yozganlarimiz o'z egasini bir zumda topardi.

1981 yildan boshlab bolaligimdan qadrdon dargohim radioda ishlay boshladim. Oddiy muharrir, sharhlovchi vazifalarida faoliyat ko'rsatdim. Hozirda esa «Mash'al» Bosh direksiyasida guruh rahbariman. Radio har bir kishining doimiy hamrohi. Eshittirishlarning qiziqarli bo'lishi tinglovchining qalbiga yetib borishi uchun tinmay izlanamiz. Radioning so'zi mavzular bir-birini takrorlamasligida, shunda muxlislar zerikmaydi. Uzoq vaqt uni tinglashadi.

«...KATTA BIR ASARDIR»

Bolaligim Sebzor dahasida o'tgan. Mirzo Ulug'bek nomli 16- maktabda o'qiganman.

Muallimlarimning bergan barcha saboqlarini jon-qulog'im bilan tinglardim, ayniqsa, o'qituvchimiz Yusuf aka Polvonovning dars o'tish jarayoni birgina meni emas, barcha sinfdoshlarimni sehrab qo'yardi. 45 minutlik saboq jarayoni tugab, qo'ng'iroq chalinganini hech birimiz sezmasdik. Maktabimizda barcha fanlar o'qituvchilarimizning o'z qo'llari bilan turli xil kardonlardan, katta-kichik taxtachalardan, rangli qog'ozlardan tayyorlangan ko'rgazmali qurollar bilan o'tilar, bugungi dars kechagi darsdan mutlaqo farq qilardi. O'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham a'lo o'qishga intilishardi. Sinfimizning «2» baholi o'quvchi bo'lmaydi», degan o'z shiori bor edi. Barchamiz bu shiorga qat'iy amal qilardik. Hammamizning birdek berilib o'qishimiz o'zaro bellashuvni eslatar, hech birimiz ortda qolishni istamas edik.

### BOLAJONLAR - BOLALIGIMGA YETAKLOVCHI ILHOMLARIM

Menga ijod yo'limda ustozlarim nimani o'rgatgan bo'lishsa, shogirdlarimga hamisha o'sha o'gitlarni ta'kidlab kelaman.

Kishi izlanishdan, ijoddan bir zum bo'lsa ham to'xtamasligi lozim deb o'ylayman. Bolalar uchun «Hayronman», «Bahodirning tushi» nomli hikoyalarim chop etilgan. Bolalikning betakror o'z olami bor. Radio ostonasiga qadam qo'yayotgan sho'x-shodon bolajonlarni ko'rib, ularga havasim, qalbiga esa bolaligimga yetaklovchi ilhom keladi. Har tong radio qulog'ini burab «Kelajak tongi» eshittirishini tinglarkanman, yoshlarimiz bizdan ko'ra ming chandon bilimiroq, ziyarak, yangilikka intiluvchan ekanligini guvohi bo'laman.

Jajji o'g'il-qizlarim, vaqt nihoyatda o'lchamli, uni behuda o'tkazmasdan har daqiqasidan yanada unumliroq foydalaning, degim keladi. Siz o'qing, o'rganing kelajak sizning qo'lingizda.

Jamila ERDONOVA yozib oldi.

### XAFA BO'LISHSA...

Bu voqea yoz kunlarining birida yuz bergandi. Qo'shnimizning kattagina gulzori bo'lib, u yerdan turli anvoyi gullarni topishingiz mumkin edi. Atirgullar, rayhonlarning nafis ishlari kun bo'yi taralib, odamning ko'nglini xushnud qilardi. Shunday kunlarning birida qo'shnimizning qizi Dilnoza chiqib, uzoq qishloqdagi buvasinikiga ketayotganini, gullariga qarab turishimni iltimos qildi. Men ham rozi bo'ldim. Gullarni har kuni sug'orib, tagini yumshatib turardim. Bir kuni gulzor ichida yurgan kichkina qizlarni ko'rib qoldim. Men ularga nima kerakligini so'raganimda, ular meni ko'rib qochib ketishdi. Qizlar ketgach, gulzorni ahvolini ko'rsangiz edi. Hammayoq payhon bo'lib yotar, ba'zi gullar ildizi bilan yulini yotardi...

Aksiga olib, qo'shnimiz ertasi kuni qishloqdan kelib qoldi va gulzorni ko'rib, kayfiyati tushib ketdi. Ular mendan xafa bo'lib qolishgandi. Xafa bo'lisha arziydi-a? Siz kim aybdor deb o'ylaysiz?



Sanobar  
JUMANOVA,  
A.Navoiy  
nomidagi  
Respublika Nafis  
san'at  
litseyining  
9-sinf  
o'quvchisi.

### YO'QOLGAN YON DAFTARCHA

Kunlarning birida Nilufar to'garakka keldi. Eshikdan kiraverishda o'zi sevib qo'shiqlarini tinglaydigan xonandani uchratib qoldi.

Nilufar shosha-pisha san'atkorlardan dastxatlar olib yuradigan yon daftarchasini chiqardi va uning oldiga borib, dastxat so'radi. Xonanda ham unga jon deb yozib berdi. Nilufar yon

daftarchasini sumkasiga solib qo'ydiyu, o'zi to'garakka chiqib ketdi. Uyiga kelgach, dastxatni o'qimoqchi bo'lib sumkasini ochib qarasa, yon daftarchasi yo'q.

Daftarlari orasini, sumkasini ag'darib ham ko'rdiki, daftarchasidan nom-nishon yo'q edi. Daftarchani qayerda tushirib qo'ygan bo'lishi mumkinligini o'ylay boshladi... Oradan ikki kun o'tgach, u to'garakka keldi va to'garakka qatnashadigan qizlardan daftarchasini so'radi. Qizlar yelka siqishdi... Nilufar rosa kuyinib, uyiga kelgach, o'sha kuni sotib olgan gazetasini o'qimoqchi bo'lib qo'liga olgan ham ediki, uning orasidan bir nima yerga tushib ketdi. Nilufar qarasa, o'zi yo'qotib qo'ygan yon daftarchasi ekan... U tilla topib olgandek suyunib ketdi. Chunki bu daftarchasidagi dastxatlar unga hamma narsadan aziz edi-da.



Kamola ERGASH qizi,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi A.To'laganov nomli  
7-maktabning 9-sinf o'quvchisi.



## CHIMYON

Qish boshida  
Adam, oyim boshliq  
Avtobusda jonadik o'tirib  
Chimyon tomon.

Tog'lar qor, jarliklar qor,  
Mo'rilar, daraxtlar qor

**Ustoz nazari**

Aziz Rahimov Toshkent shahridagi 223-maktabning 6-sinfida o'qiydi. Bu she'rlari esa ikki yil avval, ya'ni u 4-sinfidalgida yozilgan. Lekin o'zining tortinchoqligi va biroz befarqlik qilganligi tufayli, o'quvchilarga kechikib taqdim etilmoqda. Azizjonning she'rlaridagi samimiylig, tuyg'ularning ranginligi, she'r yozishida zo'rma-zo'rakilikning yo'qligi bizga ma'qul bo'ldi.

Agar mashqlarni davom ettirsa, «odam bo'ladi», degan fikrimizga siz ham qo'shilsangiz kerak.

Zohir A'LAM

Qorbobo ham yasadim  
Qorqizni ham chaqirib  
Qoyil qoldim qish fasli  
Go'zal Chimyonni ko'rib  
\*\*\*

Yangi yil, yangi kun,  
Yangi oy, yangi hafta.  
O'tgan yildagi ishlar  
Barchasi qoldi ortda.

## KIM AYBDOR ?

G'ani ko'p yeb qo'ydi asal,  
Ertasiga bo'ldi kasal.  
O'rtoqlari undan kulishdi,  
Ochofat deb mazah qilishdi.

G'anivoy-chi!  
Aybni to'nkar asalga,  
Goyo kasalida asal aybi bor.  
Goyo uni nafsi emas,  
Asal duchor qilgan kasalga...




## Otingi ayasang, yo'lga qarab yur

## O'ZINGNI EHTIYOT QIL..

Mening ismim Olima. Hamma meni isming jisinggga mos-a, juda ko'p o'qiysan, deyishadi. To'g'ri, men juda ko'p kitob mutolaa qilishni yaxshi ko'raman.

Tengdoshlarim bilan birga boshqa qizlarga o'xshab, ko'cha aylangim, odamlarni ko'rgim keladi, lekin...


Men 1-sinfga borib yurgan kezarimda bir voqea yuz bergan. Shu sabab men bir umr boshqalar aytmochi «aybdor» bo'lib qolganman. Bir kuni dars qilib o'tirsam, oyim kelib, sigirni sen olib kela qol, negadir akang bugun hayallayapti, dedilar. Men o'rnimdan turib, poda keladigan ko'chaga borib turdim. Chor atrofda odamlarning ekin-tikinlari borligi uchun sigirni haydab kelmasak, ekinlarni payxon bo'lishi hech gapmas. Xullas, o'sha kuni sigirni haydab kelayotganimda u birdaniga o'zini katta ariqning narigi tomonidagi ekinzorga urdi. Men ham uning ketidan sakradim, lekin oyog'im sirpandi-yu, o'ng ko'zim jazillab ketdi. «Oyi», deganimni bilaman, shu payt issiq bir narsa ko'zimdan oqib, yuzimga tushdi. Men xushimni yo'qotdim.



Ko'zimni ochsam, tepamda oyim o'tiribdilar. Bir ko'zim chandib bog'lab tashlangan, kasalxonada yotgan ekanman. Oyimning ko'zlaridan shashqator yosh oqar, dam sigirni, dam o'qishda ushlanib qolgan akamni koyirdilar. Men kasalxonadan chiqdim, lekin bog'lam xaligacha olinmagandi. Nima uchun olishmaganini oyimdan so'raganimda, ular faqat yig'lardilar, shu yili maktabda ham yolchitib o'qiy olmadim. Ustozlarim uyga kelishar, oyim bilan kunimiz ko'proq doktorlar eshigi tagida o'tardi. Xullas, o'shanda o'ng ko'zimning qorachig'i oqib tushgan ekan. Doktorlar menga shishadan sun'iy ko'z qo'yishganda, bir necha kun oynaga qarolmay, qo'rqib yurganman. Chunki bir ko'zim qora, birisi ko'k edi... Tengdoshlarim meni sira kamsitishmagan, lekin katta bo'lganim sayin o'zimni ularning oldida noqulay his qilayapman. Meni uydan chiqmasligimni ko'rgan oyijonim siqilib, yig'layveradilar. Men ularni yupataman, lekin oyim o'zlarini aybdor qilaveradilar. Ichki kechinmalarimni o'zimdan boshqa hech kim tushunmaydi. Balki men o'sha ariqdan ehtiyot bo'lib sakraganimda, ko'zimga sim kirmagan, bu ahvolga tushmagan bo'larmidim... Yana kim biladi deysiz, o'zingni ehtiyot qil, qo'shningni o'g'ri tutma, deyishadi-ku...

Olima MAVLONOVA, Qashqadaryo viloyati,  
Chiroqchi tumani.

+ jigarrang    o yashil    • kulrang    •• ko'k    ••• sariq



## Bosh o'tirmay, bosh qotir

Rasmni ko'rsatilgan  
ranglar bilan  
boyasangiz...

O'zingiz kashf  
etgan topilmalardan  
quvonib ketasiz.

Romchining  
romidan  
o'zingning  
hom  
hayoling  
yaxshi

Oza yurtini - olin beshigini  
**TONG**  
yulduzi

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

Umida  
ABDUAZIMOVA

**TAHRIR HAY'ATI:**

Risboy JO'RAYEV,  
Mirakmal MIROLIMOV,  
Botir UBAYDULLAEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
O'ktam OHUNOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida

№ 022 raqam bilan  
2003yil 11 dekabrda  
ro'yhatdan o'tgan

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi  
kompyuter bo'limida  
terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

Toshkent matbaa  
kombinatida chop etildi.

Manzil:  
700129

Toshkent shaxri  
Navoiy ko'chasi 30-uy  
Adadi - 45871  
Buyurtma № J 000002

Gazetani  
Otabek  
ESHCHANOV  
sahifaladi.  
NAVBATCHI:  
Jamila  
ERDONOVA

Manzilimiz:  
700129,

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.  
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron  
pochtamiz:  
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08  
144-62-34  
Tel./ faks:  
(99871) 144-37-24